



BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA SHEVAGA OID SO'ZLARING BERILISHI VA O'QITILISHI

S.Raxmonov

SamDU Urgut filiali o'qituvchisi

ARTICLE INFO

Received: 05th January 2024

Accepted: 12th January 2024

Online: 13th January 2024

KEY WORDS

*Boshlang'ich sinf, lug'at tarkibi,
lug'at ishi, metodika, sheva,
nutq.*

ABSTRACT

Maqolada boshlangich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishda lug'at ishi doirasida 4-sinf o'qish kitobida berilgan turli janrdagi asarlardagi shevaga oid so'zlar tahlil qilingan va metodik yondashilgan.

O'qituvchi o'z nutqining bolalarga qanday ta'sir etayotganini kuzatishi, tushunarli va qiziqarli bo'lganini hisobga olishi kerak. O'qituvchining mahorati shundaki, o'qituvchining nutqi yoqimli, ta'sirchan bo'lishi, uning so'z boyligi qanchalik yuqoriligiga bog'liq. Oddiygina misol qilib, tushuntirayotgan mavzusini bir xillikdan qochib o'quvchilarga tilimizning leksik imkoniyatlaridan foydalangan holda ma'nodosh, zid so'zlardan foydalangan holatda kichik yoshdagi o'quvchi eslab qoladigan darajada tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tabiiyki, o'quvchilarning nutqi ravon, chiroyli, jarangdor bo'lishi, ularning qanchalik so'z boyligi ko'pligi, o'qituvchi bilan lug'at ustida ko'proq ishlasa, o'ylaymanki, bu yaxshi natija beradi. O'quvchilarning bilish faoliyatlarining o'ziga xos taraqqiy etishini hisobga olish, ayniqsa, ularning ruhiy, fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarga yetarli ahamiyat qilish lozim. Ularga nisbatan e'tiborni kuchaytirish, mehrli va hamisha shirinsuxan bo'lish talab etiladi. Bola shaxsi pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan juda nozik his-tuyg'ularga boy bo'lib, o'qituvchi ana shu tuyg'ularni ilg'ashi. Bola ruhiyatini ko'rsatishi, ta'lim jarayonida insonparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor berishi zarur. O'qituvchi so'z boyligi ham o'quvchilar uchun bir namunadir. O'qituvchining nutqi ravon, tushunarli bo'lib bir xillikdan qochgan holda nutq so'zlasa, eng avvalo, o'quvchilar ham o'qituvchidan andoza oladi.

Biz ushbu maqolamizda 4- sinf o'qish kitobidagi turli janrlarda o'rin egallagan shevaga oid so'zlarni tahlilga tortamiz. Shevaga oid so'zlar ikki xil manbaga asoslanib olinadi: shevadan adabiy tilga o'tgan shevaga oid so'zlar, (bu so'zlar adabiy tilga ma'lum bir shevadan o'tgan bo'lib, qo'llanishi faol emas) aslida shevaga oid so'zlar.

"Chumchuq bilan chumoli" Aziz Abdurazzoq ertak: *chayir* – baquvvat, olg'ir- chaqqon, epchil, quyuq- ko'p, sershox (... Tutning quyuq, chayir shoxlarida chumchuqlar chug'ullashar ekan.) bu so'z adabiy tilde ham mavjud bo'lib ko'proq shevalarda faol qo'llanadi. **"Qush tili"** Mirtemir she'r: bo'zlashaylik-mungli, dardli tovush chiqarmoq, nola, qilmoq, *tillashaylik*- gaplashaylik, yovuq- yaqin, **"Yomg'ir"** Farhod Musajonov hikoya: dovdirroq- soddaroq, shoshqaloqroq, **"Xatarli uchrashuv"** Pirimqul Qodirov (hikoya): *biyday*- ochiq, yalang; keng,



“Ola buzoq” G’ofur G’ulom she’r: **baqbaqa-** g’urra, qavariq, **qamchindasta-** qamchi dastasi, **“Tushovli toy” Nosir Fozilov** hikoya: **tushovlangan-** oyoqlari bog’langan erkin harakatlana olmaydigan, **o’mrovi-** ko’krak qismi, **chilvir-** ingichka pishiq arqon, **esxonasi-** shoshib qolib, o’zini yo’qotib qo’yish, **“Jo’ja” Anvar Obidjon** (she’r): **qirarman-** ko’plab yoki yopasigaa o’ldirmoq.

...Chigirtkani **qiraman**,

Goh pashsha yeb ko’raman.

Nima topsam «uraman»,

Asl xo’roz jo’jaman.

Qirmoq so’zi adabiy tilimizda mavjud bo’lib tushunilish doirasiga ko’ra hammaning ham nutqida faol qo’llanmasligi tufayli adabiy tilimizga shevadan o’zlashgan. Bu so’z bilan bog’liq qirg’inbarot so’zi mavjud bo’lib aynan shu so’zning qisqargan shakli hisoblanadi. Ko’klam nafasi esib, **qatqaloq** qorlar eriy boshlagan payt. Har yilgidek, bu paytda jamoa xo’jaligimiz cho’ponlari Sirdaryo bo’yidagi yassi yaylovga o’tov tikib, ko’chib chiqishadi...), **o’tov-** yengil material, kigizdan yasalgan konussumon ko’chma uy, turar joy, **quloqchin-** tushurib qo’yiladigan quloqlari bor issiq telpak **o’limtik-** o’lgan jonivor, **qo’shog’iz-** ketma-ket ikki o’q otish mumkin bo’lgan, **qayishmoq-** bukilmoq, **jing’il-** yulg’un o’simligi, **hakalak** – bir oyoqlab sakrab yurish, “Nafsi hakalak otmoq” iborasida “ishtahasi ochilib, nafsini to’xtata olmaslik”, “nafsi yomonlik” degan ma’nolar bor, **“Mardlik va aql yorug’ligi” Miraziz A’zam qo’r-** cho’g’, **o’git-** nasihat, **tayin-** aniq, **Qovun sayli Shukur Sa’dulla: pushtalarida-** yonma- yon jo’yaklar orasidagi, odatda qator qilib ekin ekiladigan uzun yer bo’lagi, ekin palak otishi uchun qoldirilgan bo’sh joy, **choydish-** suv, choy qaynatiladigan metal idish, qumg’on, **karji-** qovun tilimidan ko’ndalangiga kesilgan bo’lak, **“Ikki saxiy” ertak: obi yovg’on** – qadimda insonlar ocharchiliq yillarida yegan suv va gurichdan tayyorlanga taom; bu so’z eskirgan so’z bo’lib, ba’zi shevalarda yovg’on yoki qipchoq shevalarida jovg’on sho’rva shaklida qo’llanib turadi. **“Odobli bo’lish osonmi” Anvar Obidjon ertak:** dumbul - donli ekinlar, makkajo’xorining ta’m kirib qolgan, lekin hali yetilib pishmagan holati (bu o’rinda makkajo’xori nazarda tutilgan), uvatdalaning cheti, javrayveribdi- ko’p gapiribdi garchi bu so’zlar tilimizda yuqoridagi ba’zi so’zlar kabi adabiy tilga kiritilgan bo’lsada nafaoldir. O’z navbatda bu nafaollik qo’llanilish doirasi hududiy jihatdan chegaralanganligidandir. **“Laqma it” Shukur Sa’dulla: g’o’ra** – dovuchcha, **nishxo’rd** – mol yemay, qolgan xashak, **sanqiydi-** tentirab yuradi, **boshpana** – turarjoy, **tumshayib** - xafa bo’lib, jahl qilib, **“Qo’zichoq” Rauf Tolib: irg’ishlab-** sakrab, **burama-** qayrilgan, **“Xarita” Normurod Norqobil xiyla-** ma’lum darajada, birmuncha, **qiyratmoq-** bir tekis yo’q qilmoq, qirmoq (shevadan o’tgan so’z ba’zi shevalarda faol qo’llanadi), **tumshaymoq-** biror narsadan xafa bo’lib, ranjib yoki jahli chiqib, qovoq solib o’tirmoq, **ayil-** egarning usti bilan otning qornidan aylantirib bog’lanadigan to’qali qayish (bu so’z tilimizda mavjud bo’lsa ham kichik yoshdagi o’quvchiga hududiy jihatdan notanish so’z), **ayilday botdi** - qattiq tegdi, og’ir botdi, ranjitdi, **qolip-** andaza, quyma shakl, **loqayd-** befarq, beparvo, sovuqqon, **kashfiyot-** ixtiro, topilma **jimitdek-** juda kichkina, jajji, mitti, **zig’ircha-** ozgina, jindek; ko’rinib turibdiki bu asaarda ijodkor hududiy jihatdan chegaralangan so’zdan faol foydalanib, asarning ta’sir doirasini oshirgan. Ayil so’zi adabiy tilda mavjud bo’lsada kichik yoshdagi o’quvchilar nutqida nafaoldir. Darslik hammaga umumiy bir xilda va boshqacha



bo'lishi ham mumkin emas. Sababi shundan iboratki, yuqoridagi so'z bilan bog'liq narsa ba'zi hududdagi bolalar ko'rmagan.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bola nutqining boyib borishida darsliklarda keragidan ortiq tilimizning jimjimadorligini ifodalab turuvchi so'zlar mavjud bo'lib, uni o'qitish va shu so'zlar asosida asar mazmunini tushuntirib borishga doir o'qitish metodlaridan foydalanish o'qituvchining dars samaradorli oshishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

References:

1. B.To'xliyev "O'zbek tili o'qitish metodikasi" O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti Toshkent; 2006
2. Matjonov S. Shojalilov A. G'ulomova, X. Sariyev, Sh. Dolimov. Z. "O'qish"
3. G'ulomova X. Yo'ldosheva Sh. Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi, Toshkent, "Noshir" nashriyoti, 2009-yil
4. Mahliyo, D. (2023). MEDIA DISCOURSE: MEDIA TRANSLATION AND NECESSITY OF STUDYING IT. Лучшие интеллектуальные исследования, 9(3), 211-214.
5. Doniyorova, G. S. (2023). SOME THOUGHTS ABOUT PROFITABLE PLANTS OF UZBEKISTAN: ON THE EXAMPLE OF KAVRAK. «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ».
6. Mahliyo, D. (2023). THEORETICAL ORIENTATIONS TO L2 METHODS & APPROACHES. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 1(7), 66-69.
7. Mahliyo, D. (2023). MORPHEMES: TYPES AND USAGE. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(27), 530-533.
8. Mahliyo, D. (2022). THE DIFFERENCES BETWEEN ESP AND ESL FOR STUDYING LANGUAGES. IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(1), 139-142.
9. Omanov, P. (2021). DEVELOPMENT OF STUDENTS' SOCIO-CULTURAL COMPETENCE IN ENGLISH TEACHING THROUGH AUTHENTIC VIDEO MATERIALS. Academic research in educational sciences, 2(9), 1085-1100.
10. Bafoye, M. U. B., & Xabitovich, O. P. L. (2022). PROMOTION OF PUBLIC DIPLOMACY IN THE ERA OF THE CREATION OF THE 3RD RENAISSANCE THROUGH THE EYES OF YOUTH. Journal of new century innovations, 15(2), 108-110.
11. Shamaksudovna, S. L., Erkinovna, K. S., Khabitovich, O. P., Zung, T. T. K., & Adkhamovna, Z. N. (2022). MODERN TECHNOLOGIES OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN UZBEKISTAN. Journal of Positive School Psychology, 5538-5550.
12. Омонов, П. X. (2021). АЛИШЕР НАВОЙ-ГОРДОСТЬ УЗБЕКСКОГО НАРОДА Бурхонова Зарина Баходир кизи. МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ, 25.
13. Rajabova, K., & Omonov, P. (2021). FACTORS OF THE LANGUAGE FUNCTIONING. In Приоритетные направления развития спорта, туризма, образования и науки (pp. 598-602).
14. Omanov, P. L. X. (2021). TALABALAR IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AUTENTIK MATERIALLARNING O 'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8), 820-826.



15. ОМАНОВ, П. Х. (2020). CONTENT AND FORMS OF USING AUTHENTIC VIDEO MATERIALS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' SOCIAL AND CULTURAL COMPETENCE. Иностранные языки в Узбекистане, (3), 118-131.
16. Дубровина, М. Э., & Мухитдинова, Х. С. (2011). Сравнительно-типологический анализ причастия с показателем-gan в узбекском языке. Российская тюркология, (2), 41-47.
17. Mukhitdinova, K., Asilova, G., Salisheva, Z., & Rakhmatullaeva, M. (2019). Current Issues of Creating Educational Material for Intensive Teaching to the Uzbek Language of Foreigners. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 9(1), 5224-5226.
18. Madjidova, R. U., Muxitdinova, X. S., & Sultonova Sh, M. (2016). Umumiy tilshunoslik fanidan ma'ruzalar matni. Toshkent-2016.
19. Muxitdinova, X. S. (2013). Avlakulov Ya. I., Nuriddinova DA O 'zbek tili. Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 6-sinfi uchun darslik. Toshkent: «Yangiyo 'l poligraph service, 143.
20. Muxitdinova, X. S. (2011). Improving the scientific and methodological basis for ensuring the continuity of teaching the Uzbek language at the educational stage: Ped. fanl. doctors.... diss.
21. Muxitdinova, X., Xudoyberganova, D., Umirov, I., Jiyanova, N., & Yusupova, T. (2004). Hozirgi o 'zbek adabiy tili (Oliy o 'quv yurti talabalari unun o 'quv qo 'llanma). T.: Ilm Ziya, 216.
22. Nozima, B., & Nusratovich, K. U. B. (2023). THE IMPACT OF MULTILINGUALISM ON COGNITIVE ABILITIES IN EFL LEARNERS. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(16), 1048-1052.
23. Nozima, B., & Nusratovich, K. U. B. (2023). ADDRESSING COMMON GRAMMAR MISTAKES IN EFL WRITING. PEDAGOG, 6(11), 551-554.
24. Nusratovich, K. U. (2023). JAMES JOYCE'S WORKS AND HIS CONTRIBUTION TO THE ENGLISH LITERATURE. Научный Фокус, 1(2), 833-836.
25. Dilshod o'g'li, A. S., & Nusratovich, K. U. (2023). THE DESCRIPTION OF DIFFERENT THEMES IN "JANE EYRE". Научный Фокус, 1(2), 807-810.
26. Nusratovich, K. U. (2023). GEORGE ELIOT'S LIFE IS DEDICATED TO HIS WORK. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(6), 253-255.
27. Nusratovich, K. U. (2023). INFLUENCE OF SHAKESPEARE'S WORKS ON MODERN LITERATURE AND CULTURE. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(31), 86-88.
28. Маджидова, Р. У., Мухитдинова, Х. С., & Оманов, П. Х. РОЛЬ ЛИНГВОСТРАНОВЕДЧЕСКИХ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ В ПРЕПОДАВАНИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО. "ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ" 7-ҚИСМ, 149.
29. Khabitovich, O. P. (2018). The Importance of Social Competence in Teaching Foreign Languages. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 7(5), 72-77.
30. Кенжабоев, Ж. А. (2017). Языковое тестирование как способ контроля при обучении английскому языку. Вестник современной науки, (2-2), 50-54.
31. Кенжабоев, А., & Кенжабоев, Ж. (2016). Бошланғич синфларда хорижий тилларни ўқитишда педагогик технологиялар. Современное образование (Узбекистан), (6), 18-25.



32. Кенжабоев, Ж. А. (2017). Новые лично-ориентированные технологии обучения. Вестник современной науки, (3-2), 45-47.
33. Кенжабаев, Ж. (2021). Лингводидактические особенности развития устной речевой компетенции студентов физического воспитания (на примере спортивной терминологии). Общество и инновации, 2(3/S), 150-154.
34. Abdusalimovich, K. J. (2021). LINGUODIDACTIC FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH COMPETENCE OF STUDENTS IN THE FIELD OF PHYSICAL CULTURE EDUCATION (IN THE EXAMPLE OF SPORTS TERMS). Conferencious Online, 47-48.